FARG'ONA VILOYATI BAG'DOD TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 23 - avgust 119-11-152-Q/23 Bag'dod tumani hokimligi

Yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

Bag‘dod tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari”ga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi rahbari U.Yigitaliyevning 2022-yil 14-martdagi №36-sonli hamda “Muqumiy” mahalla fuqarolar yig‘ini raisining 2022 yil 26-martdagi №10-sonli aloqa xatlari inobatga olinsin.

2. Bag‘dod tumani, Muqumiy MFY, tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi tasarrufidagi 4K-879 “Bag‘dod q-Yoyilma q” avtomobil yo‘lining 0.0 km o‘ng tomon qismi va 0.8 km chap tomon qismiga 2-dona 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan” hamda 4R-148a “Furqat temir yo‘l stansiyasiga shaxobcha” avtomobil yo‘lining 21.2 km o‘ng tomon qismi va 21.8 km chap tomon qismiga jami 4-dona 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgilarini tuman IIB YXXB bilan kelishgan holda belgilangan joylarga o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i F.Xayitov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori U.Yigitaliyevga yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga

joylashtirilsin. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Tojiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Y.A.Xusainov**